# XALQ DEPUTATLARI GULISTON SHAHAR KENGASHINING
# Q A R O R I

2024 - yil 21 - fevral VI-90-23-9-130-K/24 Guliston shahar hokimligi

## Guliston shahar mahalliy budjetining 2024 yil boshiga aniqlangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi budjet kodeksining 126-moddasiga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6,24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Guliston shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Guliston shahar hokimligi v.v.b G‘.Botirovning shahar mahalliy budjetining daromadlarining 2024-yil erkin qoldiq manbalari hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritilgan taklifi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Guliston shahar mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari Xalq deputatlar Guliston shahar Kengashining qarorlari asosida yo‘naltirilishi belgilab qo‘yilsin.

3. Shahar mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari etib quyidagilar belgilansin:

- shahar budjetining yil boshida aniqlanadigan erkin qoldiq mablag‘lari;

- shahar budjeti daromadlarining birinchi-uchinchi hisobot choraklari yakunlari bo‘yicha aniqlanadigan daromadlarni rejadan oshirib bajarilishidan;

- davlat aktivlarini xususiylashtirishdan shahar budjetiga tushgan mablag‘lardan;

- “E-IJRO AUKSION” elektron savdo maydonchasida yer uchastkalariga

bo‘lgan huquqlarni sotishdan shahar budjetiga tushgan mablag‘lari.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror va farmoyishlarida, Hukumat qarorlari va bayonlarida belgilangan tadbirlarni bajarish maqsadida hamda shaharning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish tadbirlariga shahar mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish 1-ilovaga muvofiq amalga oshirilsin.

5. Xalq deputatlari Guliston shahar Kengashi mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish va tadbirkorlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga:

- budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi hamda budjet intizomiga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

6. Budjetdan mablag‘ ajratilgan tashkilot rahbarlariga shahar mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larning maqsadli va samarali sarflash vazifasi hamda sarflangan mablag‘lar to‘g‘risidagi hisobotlarni Xalq deputatlar Guliston shahar Kengashga taqdim etib borish vazifasi yuklatilsin.

7. Qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘lar shahar hokimligi axborot xizmati (Sh.Yunusov)ga shaharning rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borish vazifasi yuklatilsin.

8. Ushbu qaror ijrosini tashkillashtirishni o‘z zimmamda qoldiraman.

9. Qaror rasmiy nashrda e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi o'rinbosari** **Xamrakulovich M. Sh.**

Xalq deputatlari Guliston shahar
Kengashining
2024-yil 21-fevraldagi
VI-90-23-9-130-K/24-son qaroriga
1-ilova

# Guliston shahar hokimining shahar mahalliy budjetining 2024 yil yil boshiga aniqlangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan mablag‘ ajratilishi to‘g‘risida

*mln.so‘mda*

| T/r | Ko‘rsatkichlar | Mablag‘ ajratilayotgan tashkilot nomi | Mablag‘ ajratish |
|---|---|---|---|
| **X** | **Shahar bo‘yicha** | **X** | **340,0** |
| 1 | Guliston shahar A.Navoiy hamda I.Karimov ko‘chalariga duralayd chiroqlarini sotib olish va o‘rnatish bilan bog‘liq xarajatlar uchun | Guliston shahar obodonlashtirish boshqarmasi | 340,0 |